

# XIVA XONLIGIDA QO'NG'IROTLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA ARXIV ISHI VA UNING O'RGANILISHI (XIX-XX ASRNING BIRINCHI CHORAGIGA QADAR)

*Xusanov Saidrasul Xusanovich*

o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona sh.

**Annotatsiya:** Ushbu risolada Xiva xonligining amalda bo'lgan ish yuritish tizimi va arxiv ishi holati boshqaruv hujjatchiligi jarayonlariga bevosita ta'sir etuvchi XIX – XX asr boshlarida Xiva xonlida ish yuritish va arxiv ishi tizimi tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Xiva xonligi, arxiv, ish yuritish tizimi, hujjat, amal va mansablar.

## KIRISH

Xiva xonligi arxivi va uning o'rganilishi. Xiva xonligi o'zbek davlatchigi tarixida muhim o'rinnegellagan davlatlardan biri hisoblanadi. Xiva xonligining siyosiy hayoti, uning ma'muriy boshqaruv tartibi, amalda bo'lgan ish yuritish tizimi va arxivlarning vazifalari muhim ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'la oladi. Mazkur muammolar turli davrlarda olim va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan (bular qatorida N.Muravyov, M. Ivanin, L.Sobolev, L.Kostenko, A.Kun, N.Veselovskiy, G.Danilevskiy, D.Gladishev, X. Vamberi, V. Velyaminov-Zernov, A. Kaulbors, A.Shile, E.Jelyabujskiy, A.Samoylovich, Grishfeld kabi olim va sayyoohlarning esdalik, asarlarini tilga olish mumkin) [1: 2]. Biroq yo'nalishda jumboqlar va muammolar ko'p [1: 3].

O'rta Osiyo mintaqasida mavjud bo'lgan Qo'qon va Xiva xonliklari va Buxoro amirligida o'ziga xos tarzda ish yuritish, hujjatchilik shu bilan birgalikda arxiv tizimi xususida XX asrning birinchi choragiga qadar aniq ma'lumotlar yo'q edi. XX asrning 30-yillarida O'rta Osiyo xonliklarida arxivlar bo'lganligi o'z tasdig'ini topdi. Bular Qo'qon va Xiva xonlari, Buxoro amirligi Qo'shbegi arxivlari bo'lib, ularda XVIII-XIX asrga oid hujjatlarning ma'lum qismi saqlanib qolgan.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishning uchinchi bosqichi Xiva xonligiga yo'naltirilgan edi. Dungan qo'zg'oloni Xinjanggacha cho'zilgan bir paytda Rossiya 1871 yili o'z e'tiborini Kuljaga qaratishdan to'xtatib, balki Markaziy Osiyoning boshqa bir tomonida buysunmas geografik joy hisoblangan Xiva xonligiga qaratdi. Yozma kelishuv rasman tan olingan bo'lishiga qaramasdan Britaniya Afg'onistonga o'z ta'sirini o'tkazish (Badaxshon) va Xuroson (Xorazm) ga tasir o'tkazmaslikka kelishildi. Rossiya 1873 yili General fon Kaufman boshchiligidagi Xiva xonligiga qarshi hujumini boshladi.

1873-yil 29-mayda ruslar Xiva xonligining poytaxti Xiva shahrini bosib olgandan so'ng, xon saroyini talan-taroj qildilar. Moddiy boyliklar bilan bir qatorda qo'lyozma asarlar va arxiv hujjatlari Turkiston general – gubernatori K.P. Kaufmanning topshirig'iga asosan sharqshunos olim Aleksandr Kun tomonidan Toshkentga olib kelindi. Arxiv va qo'lyozmalarning tarkibi va mazmunini o'rganib chiqqan Xiva ekspeditsiyasida bevosita qatnashgan A.L. Kun general-gubernatorga hisobot taqdim etadi. Unda olim mazkur hujjatlarni ikki guruhga bo'lgan edi [2: 41].



Birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlari hamda bir qancha vaqf mulki hujjatlarini, ikkinchisiga xatlar, arizalar, shuningdek, diplomatic yozishmalarni kiritgan. Umuman olganda, Xiva xoni saroyidan Sharq qo'lyozmalaridan iborat 300 ga yaqin kitob, 129 nomda 140 jild tarixiy asarlar, 20 nafar shoirlarning 30 jildli asarlari, 50 jildli 40 ta huquqiy-diniy asar, bundan tashqari 18 ta Qur'on va 50 ta darslik kitoblari to'planganini ma'lum qiladi. A.Kun Xiva xonligi hujjatlari asosidagi dalolatnomasida quyidagicha fikr bildirgan. "Xon saroyi musodara qilinganida, qo'lyozmalar bilan birgalikda hujjatlar ham to'plandi [2:63]. Bu hujjatlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlari hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlар orasida pul soliqlariga doir yozuvlar (solg'ut), zakot daftarlari va Matmurod devonbegining xon xarajatlari to'g'risidagi hisobotlari bor. So'ngra shu hujjatlar orasida Buxoroda, G'azalida, Istanbulda va boshqa joylarda savdo-sotiq ishlari bilan yashab turgan Xivaliklarning Xonga yuborgan iltimosnomalarini, nizolarini hal qilib berish to'g'risida yozilgan imkoniyatnomalar, biror mansab berish to'g'risidagi iltimosnomalar va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost- Indiya general gubernatorlari Narsbrukning xati, Turkiya sultonining xatlari va farmonlari, rus elchisi podpolkovnik Danilevskiy bilan Xiva xoni o'rtaida tuzilgan ahdnama hamda Turkiston general gubernatori tomonidan xonga yuborilgan bir nechta maktub mavjud" [Йўлдошев М. Хива хонлигига феодалер эгалиги ва давлат тузилиши. –Тошент: Ўздавнашр, 1959.-Б.18.].

Ushbu noyob hujjatlarning bir qismi fon Kaufman tomonidan 1874-yil 28- martda Peterburg Fanlar Akademiyasi Osiyo muzeyi (hozirgi Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti kutubxonasi)ga, qolgani esa Peterburgdagi Imperator xalq kutubxonasi (Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi)ga yuborilgan. Uzoq muddat hujjatlar ilmiy muomalaga kiritilmasdan, tadqiqotchilar uchun noma'lum bo'lib qolgan. Xiva xonlari arxivini birinchi bo'lib, 1936-yili sharqshunos olim P.P.Ivanov tomonidan tasodifan topib olinishi va o'rganib chiqilishi tarix fani sohasida katta yutuq bo'ldi. Mudomki, ushbu davrga qadar o'zbek xonliklari tarixi mahalliy tarixnavislari asarlari yoki evropalik sayyoohlar esdaliklari asosida yoritilar edi. Xiva xonligi arxivni hujjatlari mazmunining sharqshunos P.Ivanov tomonidan tadqiq etilishi Xiva xonligi tarixini ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qildi. P.Ivanov Saltikov-Shchedrin nomli xalq kutubxonasidan hujjatlar topib, Xiva tarixiga oid tadqiqotlarini doirasini kengaytishga muvaffaq bo'ladi. Xiva xonlari arxivni hujjatlarini tizimli o'rganish natijasida P.P. Ivanov "XIX asrdagi Xiva xonlari arxivi" asarini nashr etgan. Biroq, olim arxivning Sharqshunoslik institutida saqlanib qolgan ikkinchi qismidan bexabar edi. Keyinchalik, mazkur hujjatlar 1951-1956 yillar Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim lavozimida ishlagan, 1953 yil "Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan M. Yo'ldoshev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. M. Yo'ldoshev mazkur arxiv hujjatlari asosida Xiva xonligidagi yer egaligining qanday tarkib topganligi va yerdan kimlar foydalanganligini aniqlashga muvaffaq bo'lgan hamda butun mamlakatdagi yerlearning 9/10 katta yer egalari qo'lida bo'lganligini isbotlagan. Olim haqiqiy hujjatlarga tayanib, tarix fanida birinchi marta XIX asrda Xivadagi er-suv munosabatlarni, keng xalq ommasining hayotini, Xiva qishloqlaridagi murakkab ijtimoiy vaziyat va dehqonlar tabaqasi haqida to'liq malumot beradi. M. Yo'ldoshev O'rta Osiyo xonliklari xo'jaligida chorikorlik, yerni ijara olib ishlash shaklining keng tarqalmaganligi to'g'risidagi masalani yoritgan. Xiva xonligida soliq va majburiy ishlar haqida, soliq mahkamalarining tuzilishi, soliq to'lovchilar toifalari va ularning miqdori hamda yig'ilgan soliqlarning hajmi to'g'risida aniq malumotlar keltirib o'tilgan. Tadqiqotchi tomonidan o'rganilgan hujjatlar Xiva xonlari ma'muriy tuzilishiga doir boy materiallarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, saroy ayonlari, ma'mury, harbiy, sud va diniy mansablar to'g'risida mukammal ro'yxat keltiriladi hamda ularning mansab darajalari va vazifalari aniq ko'rsatiladi.



Xiva xonligiga oid arxiv daftalarining o'qib chiqishning qiyinchiligi va bu sohada tadqiqotchining qilgan katta ishini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Arxiv ilk marta topilgan davlat hujjatlari to'plami shaklida emas, balki tarqoq holda yotgan tasodifiy qog'ozlar yig'ma jildidan iborat edi. 1962-yil O'zbekiston arxivshunoslari tashabbusi bilan Respublika hukumatining talabi asosida hozirgi Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi (Leningraddagi) Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasidan 10 158 varaqda Xiva xonlari hujjatlari yurtimizga keltirildi. Hozirda ushbu noyob arxiv hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Milliy davlat arxivida saqlanmoqda.

Xiva xonlari arxivlarini chuqur o'rgangan olim M.Yo'ldoshev arxiv daftarlari orasida saroy harajatlarini ko'rsatuvchi juda ko'p hujjatlar borligini aniqladi. Hujjatlar xon xazinasi qanday sarflanganligini aniq qilib ko'rsatadi. Bu hol hujjatlarning ilmiy qimmatini oshirish bilan birga, ularni muhim tarixiy manbaga aylantiradi. Mazkur arxiv hujjatlarining o'rganilayotgan davrda tartib bilan yozib borilishi, to'planishi va saqlanishi ham O'rta Osiyo xonliklaridagi yuksak madaniyat va taraqqiyotdan dalolat beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Daftarlardan Xiva xonligida taqdirlanish, mukofot tariqasida (orden, yorliq va medallar yo'qligi) pul, er-suv, chorva yoki qimmatbaho buyumlar berilganligini bilib olishimiz mumkin [4;59].

Taqdirlash, turli jun mato va choponlar bilan mukofotlash usuli ham keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Ayrim hollarda mukofot tariqasida pichoqlar ham berilgan. Xivada harbiy yurishlar vaqtida askarlarda davlat tomonidan tibbiy yordam ko'rsatilmas edi. Yaralangan askarlar o'z hisobidan davolanishi kerak bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivii 125-raqam tarix fondi "Xiva xonlari devonxonasi" va "Xiva xonlari arxivi" deb atalgan birinchi va ikkinchi tavsiflari "Iqtisod" va "Qozi vasiqlari" bo'limida, hamda 323-fond birinchi tavsifida saqlanayotgan vaqfnomalarda Xiva madrasalari va ularning iqtisodiy manbalari to'g'risida noyob hujjatlar mavjud.

"Xiva xonlari arxivi" fondida "Yasovulboshining vaqf masalalari bo'yicha xon saroyiga chaqirilishi" deb nomlangan hujjatlar jamg'armasi saqlanadi. Mazkur hujjatlarni tadqiq etilishi ikki jihat bilan muhim bo'lib, birinchidan, sud-huquq, fiqh tizimida yasovulboshi institutining tutgan o'rni, uning funksiyalari haqida, ikkinchidan, vaqf ma'muriyati faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi. Yasovulboshining davlat boshqaruvi va sud-huquq, mirshablik tizimida tutgan o'rni masalasi atroficha o'rganilgan bo'lib, mazkur tadqiqotda asosiy e'tibor Xiva xonligida vaqf ma'muriyatining amaliy faoliyatiga qaratiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Спб. 1874; Соболев Л. Обзор Доступов В Хивинское Ханство И Короткие Сведения О Нем. // Вс., 1873; Костенко Л.Ф. Хива В 1873 Г. – Спб. 1874; Кун А.Л. Доходы Хивинского Ханства // Тв. 1873; Веселовский Н.И. Очерк ИсторикоГеографических Сведений О Хивинском Ханстве От Древнейшего Времени До Настоящего. – Спб. 1875; Данилевский Г. Описание Хивинского Ханства // Зрго, 1851; Гладышев Д. Муравьин. Поездка Из Орска В Хиву И Обратно Совершенная В 1740- 1741 Гг. Поручиком Оренбург. Драгуном. Полна Д. Гладышевым И Геодезистом Муравьиным. – Спб,1851; Вамбери Х. Путешествие По Средней Азии. – Москва. А. И. Мамонтов, 1867; Вельяминов. Зернов В.В. Архивные Монеты Бухарские И Хивинские // Творао, 1889; Каульбарс А.В. Материалы Для Разрешение Вопроса О Повороте Аму Дары В Каспийское Море. – Тифлис, 1887; Шим А. Хива И Хивинцы И Покорение Хивы. Очерк. – Москва, 1914; Желябужский Е. Очерки Завоевание Хивы. – Москва, 1875; Самойлович А.Н. К Изучению Хивы И Хивинского Ханства, Сост. Капитаном Ген Штаба Гримфельдом, Перераб. Генерал Майором Галкиным. Ч. 1-2.- Ташкент, 1902- 1908;



2. Йулдашев М.Й. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари, ЎзССР ФА Т.1960. Болтаев А. Хоразм Тарихига Оид Ҳужжатлар // Кўлғозма. Ўзрфаси. - №9320; Хива Ҳақида Эсдаликлар // Кўлғозма Ўзрфаси. - №11645;
3. Вохидов Ш. Холикова Р. Марказий Осиё Давлатлари Бошқарув Тарихидан. – Тошкент. Янги Аср Авлоди, 2006; Яна Қаранг. Вохидов Ш. Сабурова Чс. Хива Хонлигига Унвон, Мансаблар ва Улар Эгаларининг Вазифадари
4. Бозаров, Д. М., & Каримова, Г. Й. (2021). МУРАККАБ ИЖТИМОИЙ ТИЗИМЛАРДА ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИНИНГ ЎРНИ. *Oriental Journal of Social Sciences*, 1(1), 1-9.
5. Gulnoza, K. (2023, May). INFORMATION SECURITY AND MORAL THREAT. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 9, pp. 53-57).
6. Karimova, G. Y. (2023). THE IMPORTANCE OF THE FORMATION OF CIVIC ENGAGEMENT AND SOCIAL ACTIVITY AMONG YOUNG PEOPLE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 563-570.
7. Rasulova, A. (2022). The studing barrier connection in the world linguistics. *Thematics Journal of Education*, 7(2).
8. Rasulova, A., & Karimov, U. (2022). Socio-Pedagogical aspects of the formation of reading culture and skills. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(4), 114-118.
9. Abduraxmonova, M. M., & Turgunboyev, A. F. (2023). AHOLIGA SIFATLI IJTIMOIY XIZMATLAR KO 'RSATISHDA JAMOATCHILIK FIKRIGA TAYANISH SAMARADORLIGI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(22), 192-200.
10. Боротов, А., & Каримова, Г. (2023). Конституция и законодательный акт. *Вестник Ошского государственного университета. Право*, (1 (2)), 1-5.
11. Khusanov, S. (2022). Historiography of the problem of record keeping and archival affairs of the Khiva khanate in the XIX-early XX centuries. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(6), 93-98.
12. Khusanov, S. (2022). Khiva madrasahs. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(6), 107-111.
13. Khusanov, S. (2021). Qozikhona and religious rule in khiva khanate in the beginning of xix-xx centuries. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(12), 758-763.
14. Xusanovich, X. S. (2022). XIVA XONLIGIDA XIX-XX ASRNING BIRINCHI CHORAGIGA QADAR DAVRIDA ARXIV ISHI VA UNING O 'RGANILISHI. *Research Focus*, 1(3), 94-98.
15. Xusanov, S. (2023). KATTA FARG 'ONA KANALI QURILISHI TARIXIGA NAZAR (NOYOB ARXIV HUJJATLARI ASOSIDA). *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 425-429.
16. Saidrasul, X. (2023). MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR BIRLIGI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(23), 101-108.
17. Ўрмонов, У. (2022). Вопросы борьбы с болезнями скота в Туркестане.(Конец XIX–начало XX). *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 383-389.
18. Adhamjonovich, U. (2022, November). INFORMATION ON ANIMAL HUSBANDRY IN TURKESTAN (LATE XIX-EARLY XX CENTURIES). In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 89-95).



19. Adkhamjonovich, U. U. B. (2023). A Look at the Veterinary History of Turkestan in the Late 19th-Early 20th Centuries. *International Journal of Formal Education*, 2(5), 81-84.
20. Urmonov, U. (2021, June). Role Of Livestock And Livestock Products In Domestic And Foreign Trade Of The Ferghana Valley (Late Xix-Beginning Of Xx Century). In *Конференции*.
21. Urmonov, U. (2021). Role Of Livestock And Livestock Products In Domestic And Foreign Trade Of The Ferghana Valley (Late Xix-Beginning Of Xx Century): <Https://Doi.Org/10.47100/Conferences.V1i1.1261>. In *Inresearch Support Center Conferences*.
22. Ahmedbekova, M. (2022). THE IMPORTANCE AND SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPED ARTISTIC AND AESTHETIC CREATIVITY OF THE YOUNG GENERATION AND FINE ARTS IN SOCIETY. *Science and Innovation*, 1(8), 112-119.
23. Аҳмедбекова, М. К., & Дадажонова, М. Ё. (2022). Мутахассисни Касбий Тайёрлаш Жараёнини Моделлаштириш. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 183-194.
24. Maxpuzakhon, A. (2022). Methods of Using Modern Pedagogical Technologies in Organizing Fine Arts Lessons. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 268-271.
25. Mahpuza, A., & Rahmatjonzoda, A. (2022). THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MATHEMATICS LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(11), 213-217.
26. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., Murodjon, K., & Makhpuzakhon, A. (2021). Drawing Tools And Design Elements In Geometric Drawing. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
27. Kaxxarovna, A. M., & Qizi, D. M. Y. (2022). EFFECTIVE ORGANIZATION OF CLASSROOM ACTIVITIES IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
28. Aripov, Z. (2023). MODERN REQUIREMENTS FOR THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A TEACHER. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 175-178.
29. Mamajonova, D. (2023). WAYS TO COMBAT CRIME AND IMPROVE THE CRIME PREVENTION SYSTEM. *IMRAS*, 6(7), 227-236.
30. Мамажонова, Д. (2022). КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР-ХАЛҚ МАНФААТИНИНГ АСОСИЙ МЕЗОНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.

